

## YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHNING SAMARADORLIGI VA USTUVORLIGI

Nosirova Nargiza Tursunpulatovna

Namangan muhandislik-qurilish instituti

Iqtisodiyot kafedrasи katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, yurtimizda tabiat va atrof muhit uchun olib borilayotgan sa'y-harakatlar kesimida tashkil etib borilaytogan va rivojlanish bosqichida yuqori darajada turgan yashil iqtisodiyot, ushbu iqtisodiyotga o'tishning samaradorligi va ustuvorligi to'g'risida so'z yurutilgan.

**Kalit so'zlar:** "yashil" iqtisodiyot, atrof-muhit muhofazasi, atmosfera himoyasi, ifloslantiruvchi to'ladi, gibrild, GoldWind, shamol trubinasi, elektr stansiya, lumpenproletariat.

**Abstract:** In this article, the green economy, which is being organized and is at a high level of development in the context of efforts for nature and environment in our country, and the effectiveness and priority of transition to this economy are discussed.

**Key words:** "green" economy, environmental protection, atmospheric protection, pollutant charge, hybrid, GoldWind, windmill, power station, lumpenproletariat.

**Аннотация:** В данной статье обсуждается зеленая экономика, которая организуется и находится на высоком уровне развития в контексте заботы о природе и окружающей среде в нашей стране, а также эффективность и приоритетность перехода к этой экономике.

**Ключевые слова:** "зеленая" экономика, охрана окружающей среды, охрана атмосферы, заряд загрязняющих веществ, гибрид, GoldWind, ветряная труба, электростанция, люмпенпролетариат.

Biz istiqomat etib kelayotgan bu zaminning tabiatini, muhitini asrab-avaylash biz insonlarning qo'lida ekanligini unutmasligimiz lozim. Hukumatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish uchun olib borilayotgan chora-tadbirlar hozirgi kunda yanda rivojlanmoqda, tabiatni asrash to'g'risidagi ishlab chiqilgan qarorlarga alohida e'tibor bergen holda, amalda tadbiq etishayotgani hech birimizga sir emas.

2022 yilning dekabr oyida Davlatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar taqdimoti bilan tanishdi. Unga ko'ra, hozirgi zamonda energetika va ekologiya muammolari dolzarbli, shu bois mamlakatimizda ko'plab quyosh va shamol stansiyalari qurilayotgani, iqtisodiyot taqmorlarida energiya tejamkor texnologiyalar joriy etilayotganligi mavzu yuzasida ochiq suhbatda muhokamalarga sabab bo'ldi. UShbu yo'nalishni davom ettirish maqsadida , Taraqqiyot strategiyasini 2022 yilda amalga

oshirilishi lozim bo‘lgan davit dasturida sanoat tarmoqlarida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va energiya tejamkorlik tizimini izchillik bilan tashkillashtirish belgilangan edi. Taqdimot davomida ishtirokchilarga “yashil” iqtisodiyotga tegishli chora-tadbirlar to‘g‘risida ma’lumot berib o‘tildi. Qayd etilganidek, mazkur hujjat “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va sanoat tarmoqlarida energiya samaradorligini ta’minalash konsepsiyasini belgilaydi. Shundan kelib chiqib, 25 ta strategik ahamiyatga ega korxonada yoqilg‘i-energetika resurslarini tejash bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlar tasdiqlanadi. Bu orqali 2022-2026 yillarda sanoat tarmoqlarida 3,9 milliard m<sup>3</sup> tabiiy gaz, 4 milliard kVt soat elektr energiyasi va 21 ming tonna neft mahsulotlarini tejash rejalashtirilgan. Natijada har bir mahsulot tannarxidagi energiya ulushini 20% ga kamaytirish maqsad qilingan. 2023 yil 1 iyundan mahsulot ekologik toza energiya va texnologiyalardan foydalangan holda ishlab chiqarilganligini tasdiqlovchi “yashil sertifikatlar” tizimi ham joriy etildi. Shu maqsadda issiqxona gazlarining emissiyasi bosqichma-bosqich tartibga solinmoqda. Bunda tabiatga yetkazilayotgan zararni kamaytirish ishlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash choralari ko‘rilmoxda.

Shuningdek, “ifloslantiruvchi to‘laydi” tamoyilini to‘liq tadbiq etish, bu boradagi moddalar ro‘yxatini kengaytirish, to‘lov stavkasini oshirish taklif etilmoqda. “Yashil” iqtisodiyot bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni ko‘paytirish, innovatsion loyihalarni amalga oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Hujjatda belgilangan chora-tadbirlarning bajarilishini doimiy ravishda baholash uchun guruhi tuzilganligi ham alohida e’tiborga loyiqlik. Uning tarkibiga 15 ta xalqaro tashkilot va moliya institutlari rahbarlari kiradi. Davlatimiz rahbari ushbu takliflarni ma’qullagan holda, har bir tarmoqda energiya samaradorligini oshirish, mahsulot ishlab chiqarishda energiya sarfini kamaytirish bo‘yicha topshiriqlar bergan. [1]

Yashil iqtisodiyot tushunchasi hukumatizimiga kirishi bilanoq, tabiat uchun zararli amallarni yo‘q qilishga yeng shimgan ko‘plab fidoiyilar jamoasi ham tuzilgan. Tabiatni asrab avaylash borasida kunda ayngiliklarda yoki ijtimoiy sahifalarda blogerlar va mustaqil izlanuvchilar tomonidan axborot olmoqdamiz. Shuningdek issiqxonalarni isitish tizimida ham “yashil” iqtisodiyotni yanada keng qo‘llash ushbu xosa vakillari uchun hama ancha foyda keltiradi va tabiatga ziyon berish ko‘rsatkichi ancha quyilamoqda.

“Yashil” iqtisodiyotning samarasini hozirda bizga ma’lum bo‘lgan davlatimiz poytaxti Toshkent shahrida kuzatilmoqda, unga ko‘ra kuchli tirbandiklarni oldini olish masalasida yoqilg‘ilardan foydalanayotgan mashinalarni elektromobilga almashtirish reja qilingan, asta-sekinlik bilan poytaxtimizda hozirda elektromobillar hajmi kunda-kunga sekin-astalik bilan rivojlanmoqda. Ammo, asosiy masala shundaki, ko‘plab mashina egalari, o‘z texnikalarini mukammal va ko‘plab jihatlarga ega bo‘lishini xohlaydilar, avtomobil tanlayotganda esa uni gibriddan (ham yonilg‘i sarfi, ham elektr energiya sarfida harakatlanuvchi) shaklida tanlashmoqda.

Bizga ma'lumki, shamol stansiyalari yillar davomida energiya ishlab chiqish faoliyatida yuqori o'rnlarda turadi. Energetika vazirligi matbuot xizmatining 2023 yilning 2 iyun kuni holatida ma'lumot berishicha, O'zbekistonda ilk yirik quvvatga ega bo'lgan shamol trubinasi(1-rasm) o'rnatilgan, ushbu shamol trubinasi Navoiy viloyati Tomdi tumanida joylashgan bo'lib, loyihaning ilk shamol trubinasi ekanligi ham qayd etilgan. Bu loyiha Arab Amirliklarining Masdar kompaniyasi tomonidan Navoiy viloyatining Tomdi tumanida 500MVt quvvatli shamol elektr stansiyasini qurish loyihasi doirasida GoldWind(Xitoy) kompaniyasining birinchi trubinasi o'rnatildi.

Loyihaga ko'ra ushbu elektr stansiyada mana shunday shamol trubinasidan 111 ta joylanishi rejalashtirilgan. Xabar berilishicha, uning quvvati 4,7MVt, balandligi 97 m, parraklarining har biri esa 77 m ni tashkil qiladi. Loyerha Markaziy Osiyodagi eng yirik shamol elektro stansiyasi bo'ladi. Stansiya ishga tushurilgach, yiliga 1 mlrd 800 mln kVt/soat elektr energiyasini ishlab chiqaradi va buning natijasida 540 mln m<sup>3</sup> tabiiy gaz tejalishiga erishiladi hamda atmosferaga 720 ming tonna zararli gazlar chiqishini oldi olinadi. [2]



**1-rasm.** Navoiy viloyati, Tomdi tumanida o'rnatilgan O'zbekistondagi ilk shamol trubinasi.

Ba'zi iqtisodchilar yashil iqtisodiyotni ko'p tashkil etilgan tashkilotlarning filiali yoki kichik sohasi deb bilishadi. Misol uchun, an'anaviy yer tabiiy kapitalga umumlashtiruvchi va mehnat va jismoniy kapital bilan ba'zi xususiyatlarni baham ko'radigan klassik iqtisodiyot sifatida qaraladi (chunki daryolar kabi tabiiy kapital aktivlari to'g'ridan-to'g'ri kanallar kabi texnogen aktivlarning o'rnini bosadi). Yoki u

marksistik iqtisod sifatida qaraladi, unda tabiat lumpenproletariatning bir shakli, insoniyat iqtisodiyotiga qo'shimcha qiymat beradigan g'ayriinsoniy ishchilarning ekspluatatsiya qilinadigan bazasi yoki rivojlanish hayotga qimmatga tushadigan neoklassik iqtisodiyotning bir tarmog'i va hokazo. Rivojlangan davlatlar kuch muvozanatini aks ettiruvchi nisbatda barqaror va insoniy bo'limgan hayot juda past saqlanib qoladi.[3]

Yana bir ma'lumotlardan biri hozirda mamlakatimizda GES(gidroelektrostansiya) lar ham faoliyat yuritib kelmoqda. Suv energiyasini elektr energiyasiga aylatirish amaliyotlari ham zaminimizda juda ko'p yuz bergen va uning natijasida hozirda GES lardan muvaffaqiyatli foydalanishga erisha oldik.

"Yashil" iqtisodiyotning eng samarali va ustuvor jihatidan biri tabiatdan energiya olgan holda, inson omili yordamida, uning yaratgan texnikalaridan to'g'ri samarali foydalanish orqali tabiatga ziyon berishdan nachayin uzoqlashishimizdir, buning ma'nosi esa tabiat bilan kelishgan holda tinch-totuvlikda hayot kechirish.[4;5]

Yuqoridagi ma'lumotlar orqali "yashil" iqtisodiyot "yashil" energetikaga uzviy bog'liq ekanligiga amin bo'ldik.

**Xulosa.** Xulosa o'rniда shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekiston so'nggi yillarda yashil iqtisodiyot va ekologiya sohasida katta yutuqlarga erishdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida mamlakatimizda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga erishish, atrof-muhitni muhofaza qilish borasidagi tashabbuslar, strategiya va siyosatlar qabul qilindi. Bitimning Arab Amirliklari tomonidan ratifikatsiya qilinishi mamlakatning elektr energiyasi ishlab chiqarishni ko'paytirish va atmosferaga gaz chiqindilarini kamaytirish bo'yicha majburiyatlarini bajarishda muhim qadam bo'ldi. O'zbekiston kam uglerodli rivojlanish, samarali texnologiyalar, barqaror iste'mol va ishlab chiqarish tamoyillarini joriy etish orqali ekologik toza iqtisodiy rivojlanish bo'yicha yetakchiga aylanish yo'lidan bormoqda. Milliy maqsadlar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashning davom etishi mamlakatning ekologik barqarorligini ta'minlashning pirovard maqsadi sari yanada sezilarli taraqqiyotni ta'minlaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari muhokama qilindi. <https://president.uz/oz/lists/view/5749>
2. O'zbekistonda ilk yirik quvvatli shamol turbinasi o'rnatildi. <https://kun.uz/news/2023/06/02/ozbekistonda-ilk-yirik-quvvatli-shamol-turbinasi-ornatildi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2023%2F06%2F02%2Fozbekistonda-ilk-yirik-quvvatli-shamol-turbinasi-ornatildi>
3. "Yashil" iqtisodiyot. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Yashil\\_iqtisodiyot](https://uz.wikipedia.org/wiki/Yashil_iqtisodiyot)

4. Yashil iqtisodiyot darslik /A.B.Вахабов, Ш.Х.Хажибакиев – Тошкент.: “Universitet”, 2020. -262 б.
5. Tursunpolatovna, N. N. (2022). Need and duties of accounting in business entities. INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 16(11), 8-12.
6. Tursunpolatovna, N. N. (2022). Theoretical analysis of the content and characteristics of market competition. INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 16(4), 79-85.
7. Abdulazizovich, K. U. B., & Tursunpolatovna, N. N. (2023). Improving Reflection Of Information About Cash And Equivalents In The Accounting Balance Sheet On The Basis Of International Standards. Journal of Survey in Fisheries Sciences, 10(2S), 2107-2114.
8. Nasirova, N. (2023). Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda innovasion marketingdan samarali foydalanish. Interpretation and researches, 1(3), 28-34.
9. Tursunpolatovna, N. N. (2023). Ways to Increase the Efficiency and Efficiency of Export and Import of Fruits and Vegetables in the Republic of Uzbekistan. Eurasian Journal of History, Geography and Economics, 19, 54-59.
10. Насирова, Н. Т. (2023). АКТИВНАЯ ИНВЕСТИЦИОННАЯ ПОЛИТИКА В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ. Экономика и социум, (5-1 (108)), 646-649.
11. Насирова, Н. Т. (2023). ПОДДЕРЖКА ЖЕНСКОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА И СОЗДАНИЕ ДЕЛОВОЙ СРЕДЫ В УЗБЕКИСТАНЕ. Экономика и социум, (5-1 (108)), 642-645.
12. Xolmirzayev, U. A., & Xakimova, G. A. (2023). XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLARDA DEBITOR QARZLARINING AYLANISHI TAHLILIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLARDA DEBITOR QARZLARINING AYLANISHI TAHLILIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.
13. Abdulazizovich, K. U. (2023). POSITIVE ASPECTS OF THE CASH METHOD IN SMALL ENTERPRISES UNDER UNUSUAL CIRCUMSTANCES. ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 12(11), 38-47.
14. Gulshirin, J., & Abdulazizovich, X. U. B. (2022, March). INCREASING THE EFFICIENCY OF INVESTMENT IN THE DEVELOPMENT OF EXPORT DIVERSIFICATION IN THE REGION. In Conference Zone (pp. 277-281).
15. Khakimov, B. J., Alimov, B. B., Kholmirzayev, U. A., & Polechov, A. X. theory of Economic Analysis. Tashkent" economics-finance"—2013.
16. Xolmirzaev, U. B. A., & Madaliev, M. R. (2023). MOLIVIY HISOBOTLARNING QAYTA KO 'RIB CHIQILISHIDA XALQARO TALABLARGA RIOYA ETILISHI ZARURLIGI. Educational research in universal sciences, 2(3), 424-432.

17. Kamalov, A. A., & Xolmirzayev, U. A. (2016). Small business and private entrepreneurship in Uzbekistan. Questions of Economics and Management, 5(7), 6.
18. O'g'li, J. E. S., & Abdulazizovich, X. U. B. (2019). Profits of housekeeping and its development. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 8(4), 419-423.
19. Kholmirzaev, U. B. A., & Ubaydullaev, T. A. (2023). Improving the classification of financial assets according to the economic content. Educational Research in Universal Sciences, 2(1), 203-209.
20. Qutbiddinovich, S. I., & Abdulazizovich, X. U. B. (2023). GAAP ASOSIGA QO'YILGAN MOLIYAVIY HISOB KONTSEPTSIYALARI. Interpretation and researches, 1(3), 42-50.
21. Ubaydullaev, T., & Holmirzaev, U. (2018). PECULIARITIES OF TAXATION OF INDIVIDUALS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. Экономика и социум, (11 (54)), 54-57.
22. Abdulazizovich, K. U. B. (2023). Improvement Of Information About Accounts Receivable In Current Assets In The Balance Sheet Based On International Standards. Journal of Survey in Fisheries Sciences, 10(2S), 2849-2859.
23. Abdullaevich, A. O., & Abdulazizovich, K. U. B. (2023). The Importance of Infrastructure in Facilitating the Business Environment. Journal of Survey in Fisheries Sciences, 10(2S), 3695-3702.
24. Isomukhamedov, A., & Sirojiddinov, I. (2022, January). DETERMINING AND ACCOUNTING FOR THE COST OF PRODUCTION IN SMALL BUSINESSES IN THE MANUFACTURING SECTOR. In Conference Zone (pp. 241-243).
25. Isomuhamedov, A. (2023). ORGANIZATION OF ACCOUNTING IN STRUCTURES OF A SMALL BUSINESS IN THE CONSTRUCTION FIELD. INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 17(12), 27-32.
26. Boxodir o'g'li, I. A. (2023). ACCOUNTING AND ANALYSIS OF COSTS AS A BASIS OF BUDGETING. ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 12(04), 9-12.
27. ўғли Исомухамедов, А. Б., & Икромиддин Қутбиддинович, С. (2023). БЮДЖЕТЛАШТИРИШДА ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ. GOLDEN BRAIN, 1(11), 406-412.
28. Boxodir o'g'li, I. A. (2022). FEATURES OF ACCOUNTING IN SMALL BUSINESS. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 5, 64-70.